

MILLIY IQTISODNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Mamanov Muhammadamin Qulmirza o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

E-mail: mukhammadaminmamanov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola rivojlanib borayotgan mamlakatimizning milliy iqtisodiyotini o‘shida turizm sohasining o‘rni va ahamiyatini yoritish, turizm tarmog‘lari orasida tizimli ish mexanizmini tashkillashtirish va ularning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish usullarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. O‘zbekistonda jadal borayotgan bugungi integrasiylashuv jarayonlarida turizm sohasi rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o‘sh dinamikasiga ta’siri ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, turizm industriyasi, ziyorat turizmi, forum, globallashuv, xorijiy turistlar tashrifi, iqtisodiy rivojlanish, oilaviy mehmon uylari.

Milliy iqtisodiyot rivojlanishini baholash mezonlaridan biri iqtisodiy o‘sh ko‘rsatkichi bo‘lib, iqtisodiy o‘sh mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga nisbatan yoki umumiy iqtisodiyotga nisbatan ortishida aks etadi. Har bir mamlakat barqaror iqtisodiy o‘shni ta’minlashga intiladi, chunki iqtisodiy o‘sh, avvalo, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko‘payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanishga, uchinchidan, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga, to‘rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat nufuzining oshishiga olib keladi.

Ko‘plab iqtisodchi olimlar iqtisodiy o‘sh bo‘yicha ilmiy-amaliy izlanishlar olib borgan. Ular tomonidan iqtisodiy o‘shning mexanizmlari o‘rganilib, iqtisodiy o‘sh modellari tuzilgan. Iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, hozirgi kunda iqtisodiy o‘sh

modellari 3 asosiy guruhga ajratiladi: keynscha va neokeynscha iqtisodiy o‘shish modellari, neoklassik iqtisodiy o‘shish modellari, hozirgi zamonaviy iqtisodiy o‘shish modellar. Iqtisodiy o‘shish zamiridagi zamonaviy iqtisodiy nazariyada odatda tabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish hajmining real ko‘payib ketishi va qisqa muddatli ravnaqi emas, balki uzoq muddatli vaqt oralig‘idagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish real hajmi tabiiy darajasining uzoq muddatli o‘shishi tushuniladi.

Mamlakat iqtisodiyotini tahlil qilishni iqtisodiy o‘shish modellari orqali amalga oshirish samarali hisoblanadi. Masalan, iqtisodiy o‘shish orqali iqtisodiyotni tahlil qilish va prognozlashtirish, mamlakatning kapital bilan qurollanganlik darajasi, iste‘molni maksimal qondirish va shu orqali jamg‘arma normasini “oltin qoida” darajasida ushlab turish mamlakat iqtisodiyoti samaradorligini oshirish va istiqboldagi rejalarni tuzishda yordam beradi. Shu bilan birga, boshqa iqtisodiy o‘shish modellarini ham iqtisodiyotni tahlil qilish, baholash va prognozlashda qo‘llash mumkin.

Iqtisodiy o‘shish turli nuqtai nazarlar orqali o‘rganilishi sababli, uning intensiv va ekstensiv turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ekstensiv iqtisodiy o‘shish tabiiy resurslar, ishchi kuchi va kapital kabi ishlab chiqarish omillarini qo‘shimcha jalb qilish va faqat ularning miqdoriy oshishi hisobiga ro‘y beradi. Bunda ularning sifat va texnikaviy darajasi o‘zgarmasdan qoladi. Intensiv iqtisodiy o‘shish esa ilmiy-texnikaviy bazani takomillashtirish va barcha ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanib mehnat unumdorligini oshirish orqali ta‘minlanadi. Intensiv yo‘l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samara pirovard mahsulot miqdorining o‘shishida, mahsulot sifatining oshishida o‘z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o‘shish doimo iqtisodiy va noiqtisodiy omillar ta‘siri natijasida kelib chiqadi. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o‘shish omillari deganda ishlab chiqarishning real hajmini ko‘paytirish, o‘shish samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyatlarini belgilaydigan hodisalar va jarayonlar tushuniladi.

O‘zbekiston mustaqil taraqqiyotning dastlabki pallasidanoq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ichki, barqaror omillariga tayanuvchi samarali iqtisodiy siyosatga

e'tibor qaratdi. Bunda mamlakatdagi boy xomashyo va resurslarni qayta ishlashga yo'naltirilgan yuqori texnologik sanoat tarmoqlarini barpo etish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, iqtisodiyot salohiyatini kengaytiruvchi investisiyalarni amalga oshirish ishlariga katta e'tibor qaratildi. Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlashda quyidagilar asosiy omil bo'ldi. O'zbekiston iqtisodiyotini keng qamrovli modernizatsiyalash tadbirlari amalga oshirilishi natijasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishmoqda. Davlatning aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali iqtisodiy siyosati natijasida yuqori natijalar qo'lga kiritilmoqda.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish istiqbolli reja asosida amalga oshirilayotgan farmon va qarorlarda o'z aksini topmoqdaki, turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni taraqqiy toptirish va xalq farovonligini yuksaltirish maqsadida 2016 yil 2 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmon hamda “O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi Qaror chiqarildi. Aynan turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – turizm. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7000 dan ortiq madaniy meros ob'yektlari mavjud va ularning aksariyati Yunesko ro'yxatiga kiritilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay osoyishta mamlakat, demak, sohani rivojlantirish uchun infratuzilmani takomillashtirish, har bir turistik yo'nalish bo'yicha puxta rejalashtirilgan, ya'ni Yevropa, Osiyo hamda boshqa qit'alardan keladigan sayyohlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, charter reyslar va temir yo'llar qatnovini ko'paytirish, ichki turizmni yanada rivojlantirish hamda xizmat ko'rsatish sohasini tubdan yaxshilash sayyohlar oqimini ko'paytiradi. Sayyohlarda mamlakatimiz bilan yaqindan tanishish natijasida o'z mablag'larini kiritish, ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik qilish imkoniyati katta bo'ladi.

Innovatsiya – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovasion g'oyalar, innovasion yondashuv asosida

boshlashimiz kerak. Mamlakatni innovasion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Mamlakatimizning betakror tabiati, go‘zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, ziyorat turizmi, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. Aholini bandligini hal etishda turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlarni ishga solish zarurligi ta’kidlangan. Dunyodagi har bir o‘ninchi ish o‘rini turizm sohasiga tegishli, ya’ni davlat iqtisodiyotini rivojlantirib, aholini ish bilan ta’minlashda turizmning ta’siri katta.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning eng serdaromad tarmog‘i hisoblangan turizmni tez sur’atlar bilan rivojlantirish zaruratining tobora kuchayib borishi mamlakatimizda erkin turistik hududlarni tashkil etish va rivojlantirishni taqozo etadi. Erkin turistik hududlar muayyan mintaqaning rivojlanishini jadallashtirish bilan bir qatorda iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik vazifalarni yechishda ham muhim bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. UNWTO Tourism Highlights. Edition 2017. - Madrid, WTO Publications Department. -2018.
2. Tukhliyev I.S. and others. Explanatory dictionary of modern terms of the field of tourism: a collection of data. - S.: Nowruz. 2020. - 264 p.
Author development as a result of research.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165 sonli farmoni
4. World tourism barometer. Volume 18. Issue 1. January 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 14 avgustdagi turizm salohiyatini kengaytirishga doir o‘tkazilgan loyihalar taqdimotidagi nutqi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. <http://uza.uz/oz/society/b-stonli-tumanining-sayye-lar-manziliga-aylanishiga-ar-birim-29-08-2020>.